

XORIJIY DAVLATLAR SUDYALIK LAVOZIMIGA TAYINLASHDA  
NOMZODLARGA QO`YILADIGAN TALABLAR

*Djalilov Nigmatulla Karimovich*

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada sudyalik lavozimiga nomzod bo'lgan shaxslarga qo'yiladigan talablar qatorida ularning fuqaroligi, yoshi, sog'lig'i va oliy ma'lumoti bo'yicha senzlarni rivojlangan xorijiy davlatlar misolida atroflicha muhokama qilingan

**Аннотация:** в данной статье среди требований к кандидатам на должность судьи подробно рассмотрены критерии наличия гражданства, возраста, состояния здоровья и высшего образования на примере развитых зарубежных стран

**Annotation:** in this article, among the requirements for candidates for the position of judge, the criteria for citizenship, age, health and higher education are discussed in detail on the example of developed foreign countries

**Kalit so'zlar:** sud hokimiyati, sud, shaxs, hodim, shaxsiy ma'lumot, oshkor etish, javobgarlik

**Ключевые слова:** судебная власть, суд, личность, работник, личная данная, разглашения, ответственность

**Key words:** court, judge, person, employee, personal information, disclosure, responsibility

Xorijiy davlatlar tajribasida hokimiyatning uchinchi tarmog'i sifatida sudning o'rni va mavqei nihoyatda yuqori sanaladi. Davlat sud hokimiyatini amalga oshirish uchun sudga katta vakolatlar beradi. Sababi, sud hokimiyatining samarali va barqaror faoliyati boshqa organlar faoliyati barobarida davlat hokimiyatining butun bir tizimiga ham ta'sir qiladi.

Sud hokimiyati - haqiqatni aniqlash, adolatni tiklash, da'volarni hal etish va aybdorlarni jazolashga yo'naltirilgan, qarorlari tegishli barcha mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy sanalgan, qonunda nazarda tutilgan hokimiyat vakolatlariga ega maxsus davlat organlari tizimidan iborat mustaqil ochiq-huquqiy tuzilma. Sud qarorlarning davlat nomidan chiqarilishi sudyaning huquqni qo'llash bo'yicha faoliyatining qay darajada muhim ijtimoiy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Sudyalar tomonidan professional vazifalarning halol va vijdonan bajarilishi, ularning qaror qabul qilish chog'ida mustaqilligi buzilgan huquqlar samarali himoya qilinishini kafolatlaydi, jamiyatda adolat tamoyillariga, sudning xolisligi va mustaqilligiga nisbatan bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Va aksincha, sudyalarning o'z vazifalarini bajarishga sovuqqonlik bilan qarashi, noxolis bo'lishi va vijdotsizlikka yo'l qo'yishi, ularning axloqqa zid xatti-harakati

siyosiy nuqtai nazardan mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlarga nisbatan e'tiroz bildirilishiga sabab bo'ladi. Chunki, sudya "o'z vakolatini amalga oshirishda shu muqaddas davlat nomidan ish ko'radi va inson taqdirini hal etadi." [1]

Tabiiyki, sudyalarning zimmasiga yuklatilgan bunday davlat funksiyalari sudyaning ijtimoiy va huquqiy maqomini belgilab beradigan qonun hujjatlarida mustahkamlangan talablarga javob beradigan kishilargagina ishonib topshirilishi mumkin. Sudyalar zimmasiga yuklatilgan vazifalarning qanchalik mas'uliyatli ekanligini, ushbu lavozimning "mo'tabar tutilishi lozimligi" va sudyalik maqomining ahamiyatini inobatga olgan holda xorijiy davlatlarda sudyalik lavozimlariga nomzodlarga nisbatan alohida talablar qo'yilgan. Nomzodlarga nisbatan bildiriladigan talablarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: nomzodning shaxsiga oid ordinar talablar; nomzodning kasbiy mahoratiga oid talablar; nomzodning axloqiy fazilatlarini.

Xorijiy davlatlarda sudyalik lavozimiga nomzodlarning shaxsiga oid ordinar talablar qatorida ularning fuqaroligi, yoshi, sog'lig'i va oliy ma'lumoti bo'yicha senzlarni ko'rsatish mumkin.

#### 1. Fuqarolik masalasi

AQSh. AQSh Konstitutsiyasida va federal qonunlarda AQSh Oliy sudi va boshqa quyi federal sudlar sudyasi lavozimiga nomzodlarga nisbatan ularning AQSh fuqarosi bo'lishi yoki AQShda qonuniy ravishda yashayotgan bo'lishiga oid hech qanday talablar belgilanmagan. Biroq, ayrim AQSh shtatlarida sudyalik lavozimiga nomzodlarning shtat hududida doimiy ravishda istiqomat qilishi shart qilib belgilangan.

Buyuk Britaniyadagi huquqiy amaliyotga ko'ra, sudyalik lavozimiga nomzodning faqat Buyuk Britaniya fuqarosi bo'lishi talab qilinmaydi. Bo'sh sudyalik lavozimiga nomzodlikka Buyuk Britaniya, Shimoliy Irlandiya yoki Hamdo'stlik mamlakatlarning (Avstraliya, Yangi Zelandiya) fuqarolari ham ariza berishlari mumkin.

Rossiya Federatsiyasi. "Rossiya Federatsiyasida sudyalik maqomi to'g'risida"gi Rossiya Federatsiyasi federal qonunining 4-moddasiga ko'ra, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan hamda Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, federal konstitutsiyaviy qonunlar va federal qonunlarda ko'rsatilgan talablarga javob beradigan Rossiya Federatsiyasi fuqarosi sudya bo'lishi mumkin.

Ayni paytda sudyaning fuqaroligi masalasi bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Sababi yuqorida ko'rsatilgan qonun normasi bilan boshqa federal qonun hujjatlari me'yorlari o'rtasida nomuvofiqliklar bartaraf qilinmaganligidir. Jumladan, "Rossiya Federatsiyasi fuqaroligi to'g'risida"gi qonun Rossiya Federatsiyasi fuqarolariga ikkita davlatning fuqarosi bo'lishga sharoit yaratgan, ya'ni Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining boshqa davlatning fuqarosi bo'lish huquqini mustahkamlagan.

“Rossiya Federatsiyasining davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasida esa boshqa davlat yoki davlatlarning fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxs fuqarolik xizmatiga qabul qilinmasligi, fuqarolik xizmatida ishlayotgan shunday shaxs o‘z vazifasidan bo‘shatilishi lozimligi aniq belgilab qo‘yilgan.

Taassufki, “Rossiya Federatsiyasida sudyalari maqomi to‘g‘risida”gi qonunda ham ikki davlat fuqaroligiga ega bo‘lgan nomzodning sudyalik lavozimga talabgor bo‘lish, ya‘ni sudya bo‘lish masalasiga aniqlik kiritilmagan.

Shuningdek, “Rossiya Federatsiyasida sudyalari maqomi to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida sudyaning Rossiya Federatsiyasining fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda, uning vakolatlari tugatilishi belgilangan bo‘lsada, sudyaning boshqa chet el fuqaroligiga o‘tganida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar nazarda tutilmagan.

Rossiya Federatsiyasi Sudyalari oliy malaka hay‘ati a‘zosi E.A.Martynovning fikricha aynan shu mazmundagi cheklovlar “Rossiya Federatsiyasida sudyalari maqomi to‘g‘risida”gi qonunda ham ko‘zda tutilishi maqsadga muvofiq. Chunki, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga ko‘ra, sudyalari odil sudlovni amalga oshirishda mustaqil bo‘lib, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi hamda federal qonunlarga rioya qilishlari lozim. Mazkur asos qoida, E.Martinov fikricha, sudyaning faqatgina bir davlat – Rossiya Federatsiyasiga daxldor bo‘lishini talab qiladi[2]. Ikkita davlat fuqaroligiga egalik sudyaning nafaqat Rossiya Federatsiyasi qonunlarini, balki boshqa davlat qonunlarini ham ijro qilishni talab qilgan bo‘lar edi. Ushbu holat sudyaning o‘z majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirishiga to‘siq bo‘lishi mumkin, bunga esa aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Qozog‘iston Respublikasi. Qozog‘iston Respublikasida shaxs sudyalik lavozimiga tayinlanishi uchun “Qozog‘iston Respublikasi sud tizimi va sudyalari maqomi to‘g‘risida”gi Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining 29-moddasi talablariga muvofiq ravishda Qozog‘iston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi lozim.

## 2. Nomzodning yoshi

AQSh. AQShda federal sudlar yoki shtatlar sudlari sudyasi lavozimiga nomzodlarning yoshiga oid senz o‘rnatilmagan bo‘lsada, shtatlar Konstitutsiyalari, qonunlarining sudyalik lavozimlariga oid bo‘lgan qoidalarida hamda sudyalarni tanlash, sud jarayoni va sudyaning faoliyatini baholash masalalari yoritilgan huquqiy adabiyotlarda sudyalarning yoshiga oid masalalar o‘z ifodasini topgan. Jumladan, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash jarayonida ularning voyaga etganligiga va huquqiy amaliyotda tajribaga ega bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi. Nomzod yoshi o‘tgan bo‘lmasligi, sudyalik vakolatlarni amalga oshirish uchun zarur kuch-quvvatga ega bo‘lishi zarur.

Nomzodlarning yoshi bo‘yicha mavjud barcha cheklovlar ularning individual xususiyatlaridan, xususan, sog‘lig‘i, kuch-quvvati, pensiyaga chiqish bo‘yicha talab va

boshqa holatlarga mutanosib holda o‘rnatilgan.

Sudyalik lavozimiga ilk marta tayinlanadigan nomzodlar 60 yoshdan katta bo‘lmasligi, yuqori instansiya sudlari sudyaligi lavozomiga tavsiya etiladigan nomzodlar esa 64 yoshdan katta bo‘lmasligi lozimligi mustahkamlangan.

Sud tizimida o‘z vazifalarini uzoq muddat davomida g‘ayrat-shijoat bilan bajara oladigan xodimlar ishlashi lozimligi taomilidan kelib chiqqan holda AQShning 39 shtatida sudyalarning 70-75 yoshida pensiyaga chiqishi lozimligi haqida asos qoidalar o‘rnatilgan[3].

Shu sababli, sudyalik lavozimiga nomzodni tanlashda sudyaning lavozimiga tayinlanib, ishga ko‘nikar-ko‘nikmas pensiya yoshiga etganligi tufayli majburiy tartibda iste’foga chiqishi holatining oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi.

Evropa mamlakatlari. “Sudyaning maqomi to‘g‘risidagi qonun haqida”gi Evropa xartiyasiga[4] ko‘ra, Evropa mamlakatlarida sudyaning maqomini belgilaydigan qonun hujjatlarida sudyalik lavozimlariga nomzodlarga nisbatan ta’lim malakasi yoki ish tajribasi bilan bog‘liq talablarni qo‘yish orqali sudyalik vazifasini to‘la ma’noda amalga oshirish layoqatini kafolatlovchi qoidalar nazarda tutilishi mumkin.

Buyuk Britaniyada sudyalik lavozimini egallash uchun minimal yosh miqdorlari belgilanmagan bo‘lib, sudyalar 70-75 yoshlarida iste’foga chiqishlari mumkin.

Fransiyada sudyalarning yoshiga nisbatan talablar sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash mexanizmining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan bo‘lib, tashqi tanlov asosida lavozimga tayinlanadigan talabgorlar 27 yoshga, ichki tanlovda ishtirok etadigan nomzodlar tanlov o‘tkazilayotgan yilning 1 yanvar holatiga 46 yoshu 5 oyga hamda uchinchi tanlovda ishtirok etadigan shaxslar 40 yoshga to‘lgan bo‘lishi talab etiladi.

Germaniya Federativ Respublikasida sudyalik lavozimlariga tavsiya etishda nomzodlarning yoshi 35 yosh qilib belgilangan, sudyalar 65 yoshda (Federal konstitutsiyaviy sud a’zolari uchun - 68 yosh) iste’foga chiqadi.

Rossiya Federatsiyasi. “Rossiya Federatsiyasida sudyalik maqomi to‘g‘risida”gi qonunda Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining sudyalik lavozimlarini egallashlari uchun ma’lum bir yoshga to‘lgan bo‘lishlari talab qilingan.

Bunda Rossiya Federatsiyasi fuqarolari Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi lavozimiga 40 yoshga to‘lganidan so‘ng, Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi sudyasi lavozimiga 35 yoshga to‘lganidan keyin tayinlanishlari mumkin.

Yosh bo‘yicha senz Rossiya Federatsiyasi respublika, o‘lka va viloyatlar oliy sudlari, federal miqyosdagi shaharlar sudlari, muxtor viloyat va okrug sudlari, okrug (flot) harbiy sudi sudyasi lavozimlari bo‘yicha 30 yoshni;

Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyaviy (ustav) sudi, tuman sudi, garnizon harbiy sudi sudyasi, murosa sudyasi lavozimlari bo‘yicha 25 yoshni tashkil etadi.

Rossiya Federatsiyasida ham sudyalik lavozimida ishlash yoshi chegaralangan

bo'lib, shaxs 70 yoshga to'lganidan keyin iste'foga chiqishi lozim. Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari qonun hujjatlarida Rossiya Federatsiyasi sub'ekti konstitutsiyaviy (ustav) sudlari sudyalarining o'zgacha chegaralangan yoshi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasi. Qozog'iston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, shaxs tuman sudining sudyasi lavozimiga tayinlanishi uchun 25 yoshga to'lgan bo'lishi lozim. Garchi viloyat sudi va Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi sudyasi lavozimiga nomzodlarning yoshiga oid talablar qonun hujjatlarida bevosita belgilab qo'yilgan bo'lmasada, uni ushbu sudyalik lavozimlariga nomzodlarga qo'yilgan yana bir talab – sudyalik ish stajiga oid talabdan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarish mumkin. Demak, shaxs viloyat sudi sudyasi lavozimiga tayinlanishi uchun kamida 30 yoshga, Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi sudyasi lavozimiga tayinlanishi uchun kamida 35 yoshga to'lgan bo'lishi lozim.

Qozog'iston Respublikasi qonun hujjatlarida sudyalik lavozimiga nomzodlarning chegaralangan yoshi degan tushuncha nazarda tutilmagan bo'lsada, sudyalarning pensiya yoshiga etganda sudyalik vakolatlari tugatilishi nazarda tutilgan. "Qozog'iston Respublikasida pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, 2001 yil 1 iyuldan boshlab, erkaklar – 63 yoshga to'lganda, ayollar – 58 yoshga to'lganda, ularga Markazdan pensiya to'lovlari to'lanishi belgilangan.

### 3. Nomzodning sog'lig'i

AQSh. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, AQShda sudyalik lavozimiga nomzodlarga nisbatan biror talablar o'rnatilmagan, ayrim shtatlar sudlari sudyasi lavozimiga qo'yilgan talablar bundan mustasno.

Shu bilan birga, yo'lga qo'yilgan ish muomalasi odatlariga ko'ra, sudyalik lavozimi yuqori darajadagi ishlash qobiliyati sohibi bo'lishni talab etadi. Shuning uchun sudyalik lavozimiga nomzod jismonan sog'lom hamda aqlan raso bo'lishi lozim. Ya'ni, u sudyaning ishlash qobiliyatini susaytiradigan jarohatlar olmagan va surunkali kasalliklarga chalinmagan bo'lishi, sog'lom va teran aql sohibi bo'lishi hamda vazmin bo'lishi, ya'ni hissiyotlarini "jilovlab tura olishi" lozim.

AQShda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash jarayonida nomzodning sog'lig'iga oid tibbiy xulosani olish, shifokorlarning nomzodning sog'lig'i haqidagi fikrini tinglash, shuningdek, nomzodning sudyalik vakolatini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan odatlarini tahlil qilish, uning so'nggi besh yil mobaynida jiddiy kasalliklar bilan og'riganligi, keyinchalik sudyalik vazifasini bajarishiga xalaqit berishi mumkin bo'lgan jismoniy kamchiliklarini, alkogolizm, psixiatrik yoki ruhiy kasalliklarga chalinganligini o'rganish tavsiya etiladi[5].

Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikalarida ham sudyalikka nomzodning jismonan sog'lom bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun sudyalik lavozimiga nomzod dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart qilib belgilangan. Ushbu



davlatlar qonun hujjatlarida sudyalik lavozimiga tayinlanishga to'sqinlik qiladigan kasalliklar ro'yxati tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo'lib, shunday ro'yxat Rossiya Federatsiyasida sog'liqni saqlash sohasidagi ijro hokimiyati organi taqdimnomasi asosida Rossiya Federatsiyasi sudlari kengashi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan bo'lsa, Qozog'iston Respublikasida mahalliy sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnika jihatidan ta'minlash sohasidagi organ va sog'liqni saqlash sohasidagi organ tomonidan birgalikda tasdiqlanishi o'rnatilgan.

#### 4. Nomzodning oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi

AQSh va Buyuk Britaniyada sudyalik lavozimiga nomzodlarga nisbatan ularning yuridik ma'lumotiga ega bo'lishiga oid hech qanday talab o'rnatilmagan.

Fransiyada sudyalik lavozimiga nomzodlar oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishlari talab etiladi. Bunda sudyalik lavozimiga nomzodlar yuridik ma'lumotni odatda Bordo shahrida joylashgan Fransiya magistrat maktabiga (Ecole Nationale de la Magistrature – ENM) oladilar.

Rossiya Federatsiyasi. Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlarida esa shaxs sudyalik lavozimiga malaka imtihonini topshirishi uchun oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi lozimligi belgilangan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Sudyalar Oliy malaka hay'ati tomonidan sudyalik lavozimiga nomzodlarning "Yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha diplomli mutaxassis va magistr bo'lishi lozimligi belgilangan.

Biroq, Rossiya Federatsiyasida ta'lim tizimining o'ziga xosligi hamda yuridik ta'lim sohasini huquqiy tartibga solishda ayrim huquqiy bo'shliqlar paydo bo'lganligi tufayli, sudyalik lavozimiga nomzodlarga nisbatan qo'yilgan mazkur talabga rioya qilinishida muayyan muammolar vujudga kelgan.

Chunonchi, Rossiya Federatsiyasida davlat tashkilotida biror-bir lavozimni egallash huquqi davlat akkreditatsiyasidan o'tgan va belgilangan shakldagi hujjat bilan tasdiqlangan o'quv muassasasida ta'lim olgan shaxsgagina beriladi.

Sudyaning faoliyati keng miqyosdagi huquqiy hujjatlarni qo'llash va ularning mohiyatiga etish, sharh berish bilan bog'liq. Sudya amaldagi qonunchilikning "past-balandini" yaxshi bilishi, fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat huquqi, dalil huquqi masalalariga oid har qanday huquqiy nizoni ko'rishga tayyor turishi lozim. Bunday darajadagi bilimni oliy kasbiy ta'limning birinchi bosqichida olish dargumon.

Chunki, bakalavr darajasini olish uchun belgilangan to'rt yillik o'quv dasturi doirasida oladigan bilim saviyasi fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish uchun etmasligi aniq. Huquq maydonining turli sohalari oliy kasbiy ta'limning navbatdagi bosqichlarida chuqur o'rganiladi. Shu sababli sudyalik lavozimiga nomzodlarning "Yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha diplomli mutaxassis va magistr bo'lishi lozimligini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq ekanligi aksariyat huquqshunos olimlar tomonidan ta'kidlanmoqda.

Rossiya Federatsiyasida Sudyalar oliy malaka hay'ati ham shu fikrda, uning shu haqdagi 2003 yil yanvar oyidagi va 2004 yil 18 martdagi tushuntirish xatlari sudyalar malaka hay'atlariga tarqatilgan.

Biroq, "sudyalik lavozimini egallash uchun lozim bo'lgan oliy yuridik ta'lim" tushunchasi Qonun darajasida aniq belgilab qo'yilmas ekan, vujudga kelgan bunday noaniqlik nomzodning zarur bosqichdagi oliy yuridik ma'lumotga ega emasligi vajidan sudyalik lavozimiga tavsiya etishni rad etgan sudyalar malaka hay'atlarini xulosalarining asosliligiga shubha tug'diradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mingboev U. Sud - fuqarolar himoyachisi. –T.: 2001. –B.31
2. Мартынов Ye.A. Kandidat na doljnost sudi: problemy pri otbore. (Materialy Interneta)
3. Toni M.Fayn. Kak funkcioniruet sudebnaya sistema v SShA. // Mejdunarodnyy opyt otbora i naznacheniya sudey. Sbornik materialov. –B.21.
4. Xartiya 1998 yil 8-10 iyul kunlari Portugaliyaning poytaxti – Lissabon shahrida Yevropa mamlakatlaridagi sudyaning maqomi to'g'risidagi qonunlarga bag'ishlangan ko'ptomonlama seminar yakunida qabul qilingan
5. Magnusson P. Kriterii otsenki kandidatov v sudi. // Mejdunarodnyy opyt otbora i naznacheniya sudey.. Materialy konferensii ot 16-19 iyunya 2003 g. Sbornik materialov. –B. 27.